

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**“TARMOQLAR IQTISODIYOTI” KAFEDRASI**

*Qo'lyozma huquqida*

*UDK: 338.45:6.03.2(575.1)*

**RAFIQOV JAHONGIR AMINJON O'G'LI**

**SANOAT SALOHIYATINI YANADA OSHIRISHDA TEXNOPARK,  
KICHIK SANOAT ZONALARI, HUDUDIY KLASTER VA LOGISTIKA  
MARKAZLARINING O'RNI**

**70310102-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)**

**mutaxassisligi bo'yicha**

**magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:**  
**dots. Kasimov A.**

**Toshkent – 2023**

Magistril dissertatsiya ishi “Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasida dastlabki  
himoyadan o'tgan.

34- -sonli bayonnoma «26» 04 2023 y.

Ilmiy rahbar:


A.Kasimov

  
imzo

sana

Magistr:

J.Rafiqov

  
imzo

sana


Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2023 yil “30” 05.

№ 3/25 raqami bilan ro'yxatga olingan

**“Himoyaga ruxsat etiladi”**

“Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrası

mudiri dots. I.Xotamov



“8” “may” 2023 yil

Himoya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida

2023 yil “30” 05 soat “10<sup>00</sup>” da bo'ladi

## ANNOTATSIYA

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida sanoat salohiyatini yanada oshirishda texnopark, kichik sanoat zonalari, hududiy klaster va logistika markazlarining ahamiyati chuqur o'rganilgan hamda ularning mazmun-mohiyati batafsil ochib berilgan. Kichik sanoat zonalarini tashkil etish va takomillashtirish orqali sanoat salohiyatini yanada oshirish bo'yicha ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Shuningdek, mamlakatimiz sanoat salohiyatini texnopark, hududiy sanoat klasterlari va logistika markazlarini rivojlantirish orqali yanada oshirish bo'yicha xorijiy tajribalari o'rganilgan va ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** sanoat, sanoat salohiyati, texnopark, kichik sanoat zonalari, hududiy klaster, logistika markazlari.

## ANNOTATION

In this master's thesis, the importance of technoparks, small industrial zones, regional clusters and logistics centers in increasing the industrial potential has been deeply studied and their essence has been revealed in detail. A scientific proposal and practical recommendations have been developed to further increase the industrial potential through the organization and improvement of small industrial zones.

Also, foreign experiences on further increasing the industrial potential of our country through the development of technological parks, regional industrial clusters and logistics centers were studied and practical recommendations were developed for their application in the conditions of Uzbekistan.

**Key words:** industry, industrial potential, technological park, small industrial zones, regional cluster, logistics centers.

## MUNDARIJA

Annotatsiya .....	3
Mundarija .....	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati .....	7
Keltirilgan rasmlar ro'yxati .....	8
Keltirilgan qisqartmalar .....	9
<b>KIRISH</b> .....	10
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi .....	11
Tadqiqotning maqsadi va vazifalari .....	13
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari .....	14
Tadqiqotning ob'yekti va predmeti .....	14
Tadqiqotning ilmiy yangiligi .....	15
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi .....	15
<b>I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI</b> .....	17
1.1. Kirish .....	17
1.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi .....	17
1.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi .....	32
1.4. Xulosa .....	36
<b>II BOB. METODOLOGIYA</b> .....	38
2.1. Tadqiqot dizayni .....	38
2.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni .....	38
2.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar .....	39



2.4. Tadqiqotni o`tkazish uchun zarur sharoitlar .....	39
2.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi .....	39
2.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar .....	40
<b>III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR .....</b>	<b>42</b>
3.1. O`zbekiston Respublikasida kichik sanoat zonalarining hozirgi holati tahlili .....	42
3.2. Sanoat salohiyatini oshirishda kichik sanoat zonolari va texnoparklarni tashkil etish bo`yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi va undan foydalanish yo`llari .....	42
3.3. Toshkent shahrida texnoparklar faoliyati va “Yakkasaroy” kichik sanoat zonasining samaradorligini baholash .....	56
3.4. Tahlillardan olingan natijalar sharhi .....	68
<b>XULOSA .....</b>	<b>71</b>
Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi .....	71
Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari .....	74
Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar .....	76
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI .....</b>	<b>78</b>

## KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalarida chuqur va tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, iqtisodiyot tarmoqlarini yanada rivojlantirish, ayniqsa sof qo'shimcha qiymat yaratishda muhim sanalgan sanoat tarmog'ini yanada rivojlantirish, mavjud sanoat salohiyatidan samarali foydalanish borasida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar va yangilanishlarni bosqichma-bosqich asta-sekinlik bilan amalga oshirish va bu jarayonda davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga o'tishida o'ziga xos turtki bo'ldi deb hisoblanadi. Bu jarayon sanoat salohiyatidan to'laqonli foydalanish orqali mamlakatimiz iqtisodiyotini jadal rivojlantirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni<sup>1</sup> bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning 29-maqsadi "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish" deb belgilangan. Ushbu maqsadda hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish. Sharoiti og'ir bo'lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish belgilangan.

Bundan tashqari, 36-maqsadi "Barcha transport turlarini uzviy bog'lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, yirik shaharlar o'rtasida kunlik transport qatnovlari asosida manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratish" deb belgilangan. Hamda Toshkent shahri va hududlarda jamoat transporti tizimini takomillashtirish va uning infratuzilmasini rivojlantirish; shaharlararo va shahar atrofi temir yo'l qatnovlari jozibadorligini oshirish; transport va logistika

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni